



SURXONDARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM TIZIMI




*Surxondaryo viloyati
statistika boshqarmasi*

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'lmdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'lmdir.



Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlikda (2020-2021- o'quv yili boshida)




1	Denov
2	Termiz
4	Termiz sh

Surxondaryo viloyatida oliy ta'lim tizimida oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari 7 ta oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universitet va 6 ta oliy ta'lim tashkilotlari filiallari faoliyat yuritmoqda.

Surxondaryo viloyatida 2020-2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lim tashkilotlari soni 7 tani tashkil etadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari soni, ming kishi (2020-2021- o'quv yili boshida)



2020-2021- o'quv yili boshiga
oliy ta'lim tashkilotlarida jami
25,6 ming nafar talaba tahsil
olayotgan bo'lib, ularning asosiy
qismi ya'ni 20,2 ming nafar talaba
(78,9 %) Termiz shahrida tahsil
olmoqda

Oliy ta'lif tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshida)



ayollar

50,7 %



2020-2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lif tashkilotlarida jami 25,6 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 13,0 ming nafarini (50,7 % ni) qizlar va 12,6 ming nafarini erkaklar (49,3 % ni) tashkil etdi.

erkaklar

49,3 %




Oliy ta'lif tashkilotlari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi (2020-2021- o'quv yili boshiga)




Jami	25,6	21 yosh	2,6	26-29 yosh	5,2
17 yosh va undan kichik	0,1	22 yosh	2,7	30-34 yosh	1,4
18 yosh	1,0	23 yosh	2,7	35-39 yosh	1,2
19 yosh	1,4	24 yosh	2,4	40 yosh va undan katta	0,5
20 yosh	2,0	25 yosh	2,3		

✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga Surxondaryo viloyati oliy ta'lif tashkilotlarida 25,6 ming nafar talaba ta'lif olayotgan bo'lib, ulardan 2,6 ming nafari 21 yoshni, 2,0 ming nafari 20 yoshni, 2,7 ming nafari 22 yoshni, 2,7 ming nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.


Oliy ta'lif tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi (2020-2021- o'quv yili boshiga)



✓ 2020/2021- o'quv yili boshiga oliy ta'lif tashkilotlariga jami 9,8 ming nafar talaba qabul qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,7 % ga oshgan. Eng ko'p qabul qilingan talabalar Termiz shahriga to'g'ri kelgan.



2020- yilda bitiruvchilar soni



✓ 2020- yilda Surxondaryo viloyati oliy ta'lif tashkilotlarini jami 3,3 ming nafar talabalar tamomlagan bo'lib, ulardan 2,1 ming nafarini ayollar (63,6% ni) tashkil etsa, 1,2 ming nafari erkaklar (36,4 % ni) dan iborat.

Oliy ta'lif tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari soni, ming kishi (2020-2021- o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshida Surxondaryo viloyati oliy ta'lif tashkilotlarida jami 1,4 ming nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 0,5 ming nafari ayollar (35,7 %) ni tashkil etsa, 0,9 ming nafari erkaklar (64,3 %) dan iborat.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi tel.: (76) 225-65-89